

DAVLAT BYUDJETINING IJTIMOIIY-IQTISODIY AHAMIYATINING NAZARIY ASOSLARI

Nurbekov Shamsiddin Xamza o'g'li

O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi magistranti

ARTICLE INFO

ABSTRACT:

ARTICLE HISTORY:

Received:18.04.2025

Revised: 19.04.2025

Accepted:23.04.2025

Ushbu maqolada davlat byudjetining ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatini oshirish yo'llari bo'yicha nazariy va amaliy asoslari o'rganib chiqildi hamda ulardan kelib chiqqan holda xulosalar va ilmiy-amaliy takliflar shakllantirildi.

KEYWORDS:

*davlat byudjeti,
mahaliy byudjet,
taqchillik, ijtimoiy
himoya, ijtimoiy sarflar,
davlat maqsadli
jamg'armalari.*

Byudjet muammosi bilan sobik Ittifoq davridan shug'ullanib kelingan. Biroq, iqtisodiyotni mamuriy - buyruqbozlik usullari orqali boshqarish asosiy o'rinni egallaganligi tufayli, bu masalaga yetarli etibor berilmadi. Faqatgina hozirgi davrga kelib, uzoq tanaffusdan o'z, byudjet masalalari va uning bozor iqtisodiyotidagi o'rni muxim iqtisodiy muammo sifatida iqtisodchi olimlarning diqqat etiborini tortdi. Unchalik ko'p mikdorda bo'lmagan ilmiy izlanishlar kapitalistik mamlakatlardagi byudjetning mohiyati va mexanizmiga bag'ishlandi. Xullas, byudjetni o'rganuvchi mutaxassislarning ilmiy yo'nalishlari marksizm - leninizm g'oyalari va ko'rsatmalariga rioya kilingan holda olib borildi.

Ma'muriy rejalashtirishdan, xo'jalik faoliyatini tashkil qilish hamda boshqarishning shakl va uslublari tizimidati chuqur o'zgarishlar bilan boshlangan bozor iqtisodiyotiga o'tish, byudjet va byudjet mexanizmiga bo'lgan munosabatni tubdan o'zgartirishni taqoza etayotir. Ular ikkinchi darajali iqtisodiy kategoriyadan davlatning jamiyat iqtisodiy hayoti, korxona, tashkilot va fukoralarning xo'jalik faoliyatiga ta'sir kiladigan quvvatli vositaga aylanishi zarur. Hozirgi kunga kelib mamlakatimizda yangi byudjet tizimi ishlab chiqilganiga qaramasdan, bu sohada hal kilinishi zarur bo'lgan muammolar ko'p. Bu

jarayon bizning fikrimizcha hali to'la tugallangani yo'q va byudjetlar hamda byudjet muammolarini yetarli darajada nazariy jixatdan o'rganilmaganligi, amaliyotda ulardan samarali foydalanish jarayoniga muayyan darajada tuskinlik kilmokda. Shu jixatdan olib karaganda, iqtisodchi - moliyachi olimlarning ilmiy izlanishlari, byudjet tizimini nazariy jixatdan o'rganish va taxlil qilish bilan birgalikda, byudjet mablag'larini amaliyotda kullanilishi, byudjet mexanizmining ijtimoiy – iqtisodiy moxiyatidan kelib chiqqan holda uning vazifalari hamda, amaliyotdagi byudjet mexanizmini takomillashtirish yo'nalishlarini ishlab chiqishga ham karatilgan bo'lishi lozim.

Davlat byudjetining moxiyati va uning vazifalari tutrisida fikr yuritar ekanmiz, dastlab Davlat byudjet tizimining ijtimoiy - iqtisodiy moxiyati, tamoyillari, vazifalari tarkibiy tuzilishi bilan o'zaro bog'liqligini ko'rib chiqishni maksadga muvofiq deb bilamiz.

Davlat byudjeti - davlat pul mablag'larining (shu jumladan davlat maksadli jamg'armalari mablag'larining) markazlashtirilgan jamtarmasi bo'lib, unda daromadlar manbalari va ulardan tushumlar mikdori, shuningdek moliya yili mobaynida aniq maksadlar uchun ajratiladigan mablag'lar sarfi yo'nalishlari va mikdori nazarda tutiladi. O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetida milliy daromadning sanoatni, kishloq xo'jaligini, transportni, savdo sotikni va xalk xo'jaligining boshqa tarmoqlarini rivojlantirishga, aholini moddiy farovonligi va madaniy turmush darajasini yuksaltirishga, davlat xokimiyati va davlat boshqaruvi organlarini taminlashga sarflanadigan qismi jamlangan bo'ladi.

"Davlat bilan korxonalar, tashkilotlar, muassasalar o'rtasidati moliyaviy muno sabatlarning sezilarli qismi ga byudjet munosabatlari deyiladi. Byudjet munosabatlarini o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, birinchidan, Davlat va uni quyi boshqaruv organlari ishirokida taqsimlash jarayonida vujudga kelsa, ikkinchidan umumjamiyat talab va extiyojini taminlash uchun kerak bo'lgan markazlashan pul fondini shakllanishi va samarali foydalanishi bilan bog'liqdir" x1'. boshqacha kilib ayttanda iqtisodiy moxiyatita ko'ra davlat byudjeti bu – tarmoq lar iqtisodiyotini, ijtimoiy madaniy tadbirlarni, mudofaa va boshqaruvni moliyalashtirish uchun zarur bo'lgan byudjet fondini shakllanishi va foydalanishini taminlashda, davlat bilan yuridik va jismoniy shaxslar o'rtasida milliy daromadni taqsimlash borasidagi pul munosabatlaridir.

Mamlakatimiz bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida iqtisodiy rivojlangan davlatlar tajribasidan kelib chiqqan holda ish olib borishi maksada muvofiq dir. Biz ushbu bo'limni yoritishda rivojlangan davlatlar byudjet tuzilishi tamoyillariga bir nazar tashlashni lozim topdik. Davlat byudjetita birinchi bo'lib, XVI asrda Angliyada asos solindi. Feodalizm boskichida xech qanday xujjatlar yuritilmas, xarajatlarni esa usha davrda Davlat boshligi hisoblanmish Kirol Davlat xazinasidan xoxlaganidek ko'r-ko'rona sarflar edi. Bu xarajatlar asosan Kirol va uning oilasini saklab turish uchun sarflanar edi. Agar misol kilib, Fransuz Kirolu Genrix XIV ni olsak (1594-1610) uning o'zini saklab turish uchun mamlakat yillik daromadining yarmidan oshig'i sarflanar edi. Angliya Kirolu Lyudovik XIVning saroyida 14 mingdan ziyed xarbiylar va xizmatchilar xizmat kilar edilar. Ushbu xarajatlarni yashirish

maksadida xazina xarajatlari chuqur sir saklanardi. Lekin burjuaziya ishlab chiqarishni rivojlantirish uchun Davlatning moliyaviy yordamiga muxtoj edi. Shu sababli burjua monarxlar bilan kirol o'rtasida moliyaviy kelishmovchilik kelib chiqa boshladi. Ular Kirol xarajatlarini elon kilinishini va soliqlarni tuzish va bekor kilinishida ular ham ishtirok etishlarini talab kila boshladilar. Natijada Davlat boshligi burju revolyusiyasidan keyin Davlat xazinasidan ko'r -ko'rona foidalanish xuquqidan maxrum bo'ldilar. Burjuazlar Davlat siyosatini boshqarish maksadida hamda sinflar kizikishidan kelib chiqib Kirol oldiga byudjet tizimining quyidagi tamoyillarini talab kilib kuydilar:

- Byudjet yaxlitligi tamoyili

Bu tamoyil Davlat byudjet daromadlari va xarajatlari yaxlitlitini, yani xar bir xarajat uchun daromad biriktirilishi va uni yagona byudjet tomonidan boshqarilishi, jami daromad va xarajatlarni o'z ichiga kamrab olinishi, yuritilayottan xujjat va moddalarning bir hilligi kabilarni o'zida aks ettiradi.

- Byudjet tulikligi tamoyili:

Bu tamoyil o'zida byudjet bruttosini tashkil qilish va xarajatlarining moddalarini xujjatlarda kayd kilib borilishini o'zida aks ettiradi.

- Byudjet xakikiyliti tamoyili:

Bu tamoyil o'zida xarajat va daromadlarida Hukumat xarbiy va shunga uxshash xarajatlarni yashirmasdan xujjatlarda aks etirilishini o'z ichiga kamrab oladi.

- Byudjet oshkoralik tamoyili:

Bu tamoyil o'zida Davlatning jami daromad va xarajatlarini hamda ularning manbalarini elon kilinishini o'zida aks ettiradi.

Shunday kilib burjuaziya bilan birgalikda byudjet tizimi ham yaratildi.

Rossiya Federatsiyasi byudjet tizimi M.V.Romanovskiy fikri bo'yicha quyidagi tamoyillarga asoslanadi: birlik;

- daromad va xarajatlarni o'rtasidagi fark;
- byudjet mustakilligi;
- byudjetda daromadlar va xarajatlarning tulik aks ettirilishi;
- byudjetning muvofiqligi;
- byudjet mablag'laridan samara va iqtisod bilan foydalanish;
- byudjet xarajatlarini yalpi koplash;
- oshkoralik;
- byudjetning xakkoniyligi;
- byudjet mablag'larini maksadli, adresli xarakterdaligi.

Hozirda xar qanday davlatni o'z byudjet tizimi mavjud. Ular ham yukorida kayd kilingan tamoyillarga amal kilinmokda.

Mamlakatimizda ijtimoiy va iqtisodiy isloxatlar yanada chukurlashayottan davrda ijtimoiy hayotimizning barcha sohalarida bo'lgani kabi moliya - byudjet tizimlarida ham

rivojlangan davlatlar tajribasidan kelib chiqqan holda o'z tamoyillarini ishlab chiqishi hozirgi kunning asosiy talabidir.

Hozirgida O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjet tizimining asosiy tamoyillari quyidagilardan iboratdir.

- byudjet tasnifi tizimi, hisob-byudjet xujjatlari va byudjet jarayoni tuzilishining yagonaligi; - bu tamoyil o'zida Davlat va mahalliy byudjet daromadlari va xarajatlari yaxlitligi, yana xar bir daromad uchun birlashtirilishi va uni yagona byudjet tomonidan boshqarilishi va jami daromad va xarajatlarni o'z ichiga kamrab olinishi yuritilayettan xujjat va moddalarning bir hilligi kabilarni o'zida aks ettiradi.

- byudjet tuzilishining O'zbekiston Respublikasi mamuriy - xududiy tuzilishiga muvofiqligi;

- turli darajadagi byudjetlarning o'zaro bog'liqligi;

- Davlat byudjeti balansliligi;

- Davlat daromadlarini anik manbalar bo'yicha va xarajatlarini yo'nalishlar (moddalar) bo'yicha rejalashtirish;

- Davlat byudjeti xarajatlarini byudjetdan ajratiladigan tasdiklantan mablag' doirasida sarflash;

- barcha darajadagi byudjetlarning mustakilligi; - bu tamoyil o'zida O'zbekiston Respublikasi mahalliy byudjetlarining daromadlari va xarajatlari mustaqil ravishda mahalliy xokimiyatlar tomonidan tuzilishi mahalliy deputatlar kengashi tomonidan tasdiklanishi va bajarilishi ko'zda tutilgan.

Yukoridagi kayd etilgan tamoyilarning barchasi ham byudjet barkarorligini ta'minlash va xo'jalik sohalari, iqtisodiy xududlar o'rtasida mablag'larni taqsimlash, zarur proporsiyalarni tashkil qilish, byudjet xarajatlarini daromadlariga mos kelishi, moliyaviy rezervni tashkil qilishdan iboratdir. Bu esa barcha moliyaviy siyosatning bosh maksadidir.

Bozor iqtisodiyotini shakllantirishda byudjetning vazifalari bilan bog'liq bo'lgan masalani uning ahamiyatidan kelib chiqqan holda yoritishni maksadga muvofiq deb topdik. Shu maksadda biz, ushbu ilmiy ishimiz doirasida byudjetning fiskal, iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyatlarini aloxida - aloxida mezonlar sifatida talkin etamiz va shunga ko'ra mos ravishda uning vazifalarini belgilashga harakat kilamiz. Bu borada quyidagilar asosiy maksad kilib olinishi lozim:

- balanslangan bozor yo'lida muxim rivojlanishga yetishish maksadida barcha moddiy va moliyaviy rezervlarni imkoni boricha (maksimal) aniklash;

- aloxida soliqlar va boshqa to'lovlar bo'yicha, shuningdek, istiqbol rejalariga va ijtimoiy- iqtisodiy rivojlanishning maksadli dasturidagi muvofiq umumiy xajmdagi byudjet daromadlarini aniklash ;

- anik maksadga karatilgan, shunindek, byudjetda belgilangan umumdavlat ahamiyatidagi barcha tadbirlarni mutassil moliyalaptirish extiyejlaridan kelib chiqib umumiy xajmdagi byudjet xarajatlarini belgilash;

- iqtisodiyotda inflyatsiya tendensiyalarini bartaraf etishga va milliy pul birligi mustaqamlanishini ta'minlashta karatilgan moliyaviy barkarorlik umumiy dasturi bilan byudjetni kelishtirish ;

-iqtisodiy isbotlangan manbalar hisobidan byudjet kamomadini kiskartirish va bartaraf etish;

- turli darajadati byudjetlarni balanslash maksadida ular o'rtasida, shuningdek xo'jalik sohalari, iqtisodiy xududlar o'rtasida davlat daromadlari manbalarini qayta taqsimlash yo'li bilan byudjetni tartibga solishni amalga oshirish;

- barcha yirik masshtabli ijtimoiy – iqtisodiy dasturlarning proporsionalligi va balanslanganligini tamolovchi byudjetni perspektiv rejalashtirish rolini oshirish ;

- yuridik shaxslar moliyaviy faoliyati va aloxida fukoralarning soliq majburiyatlarini bajarishdagi daromadlari nazoratini kuchaytirish;

- elektron hisoblash texnikasidan keng foydalanish bilan moliyaviy hisob - kitoblarni avtomatizatsiyalash tizimi orqali byudjetni tuzish va ijrosi jarayenini avtomatizatsiyalash.

Shunday kilib, hozirgi vaziyatda byudjet tizimini takomillashtirish masalalariga aloxida etibor berish zarurdir. O'z navbatida byudjet tizimining oldida ana shunday murakkab vazifa quyilayottan paytda bu vazifalarning tegishli mezonlarini anik bilish va ularga kat'iy rioya qilish muxim ahamiyat kasb etadi.

Byudjet jarayoni byudjet faoliyatini turt boskichini o'z ichiga oladi:

- 1) Davlat byudjeti loyihasini tayyorlash;
- 2) Davlat byudjetini tayyorlash, ko'rib chiqish va qabul qilish ;
- 3) Davlat byudjetining ijrosi;
- 4) Davlat byudjetining ijro etilishini nazorat qilish,

Byudjet jarayonining barcha boskichlari o'zaro bog'langan bo'lib, nafaqat jamiyat iqtisodiy hayotining , balki siyosiy madaniyatining ham to'g'ridan - to'g'ri ifodasidir. Mamlakatlar bo'yicha barcha boskichlarning davomiyligi xar xildir, lekin ularni aksariyatida bu jarayon uch yildan ortik kechmaydi.

- 1) Davlat byudjeti loyihasini tayyorlash;

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi Davlat byudjeti loyihasini byudjet mablag'lari oluvchilar takdim etgan buyurtmalarga va Davlat byudjetining tuzilmasiga kiruvchi byudjetlar loyihalariga muvofiq tayyorlaydi.

Kelgusi moliya yiliga mo'ljallangan Davlat byudjeti loyihasi:

1.Byudjet tasnifiga muvofiq aks ettiriladigan Davlat byudjeti daromadlari va xarajatlarini;

2.Umumdavlat soliqlaridan Korakalpogiston Respublikasi byudjetiga, viloyatlar va Toshkent shahar byudjetlariga ajratmalar normativlari, shuningdek mazkur byudjetlarning daromadlari, shu jumladan byudjet dotatsiyalari va byudjet subvensiyalari hamda xarajatlari mikdorlarini ;

3. Korakalporiston Respublikasi byudjetining , viloyatlar va Toshkent shahar byudjetlarining aylanma kassa mablag'i meyori mikdorlarini;

4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi zaxira jamg'armasining, Korakalporiston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar byudjetlari zaxira jamg'armalarining nazarda tutilmagan xarajatlarni koplashga tegishli byudjet mablag'lari yunaltirilishi mumkin bo'lgan doiradagi mikdorlarini;

5. Davlat byudjeti taqchilligining eng yukori mikdori va uni moliyalashtirish manbalarini;

6. Davlat ichki va tashqi karzlarining, davlat tomonidan beriladigan kreditlar jamda kafolatli jamtarmaning eng okori mikdorlarini o'z ichiga oladi.

Kelgusi moliya yiliga mo'ljalangan Davlat byudjeti loyihasini tayyorlash jarayonini muvofiq lashtirish va nazorat qilishni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi Raisi yoki uning topshirig'iga ko'ra O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri amalga oshiradi.

Kelgusi yil byudjetini tuzishda turli xil usullar ko'llaniladi:

1. Iqtisodiy taxlil metodi - o'tgan yil byudjeti bajarilishi darajasini aniqlaydi va farqlar sabablarini o'rganib, joriy yil byudjeti bajarilishi darajasini belgilaydi;

2. Normativ metodi - asosida moddalar xarajatlarning belgilangan normasi (meyori) yotadi. Natural birlikni norma ko'rsatkichiga ko'paytirib, xarajatlarning umumiy summasi o'rnatiladi;

3. Ekstrapolyatsion metod - oldingi yillar hisobot matlumotlaridan kelib chiqib, moliyaviy ko'rsatkichlar dinamikasi (o'zgarishi) asosida ularni (moliyaviy ko'rsatkichlarni) belgilaydi va olingan summalarni kelgusi yilga tadbik etadi.

O'zbekiston Respublikasi hukumati kelgusi moliyaviy yili byudjet loyihasini tuzishdagi mo'ljallar (raschyotlar) xususiyati, shuningdek markazlashgan holda belgilangan ijtimoiy va moliyaviy normalar yoki ulardagi o'zgarishlar to'g'risida yo'riknomalarni yuboradi. Bundan tashqari yo'riknomada:

-tartibga solinadigan daromadlardan chegirmalar (ajratmalar) normativ loyihalari (foizlarda) va ular mo'ljaliga (raschyotiga) bu daromadlar kontingenti summasini qabul qilish to'g'risida;

- O'zbekiston Respublikasi byudjetidan kutiladigan dotatsiya va subvensiyalar hamda ularning maksadli yo'nalishi to'g'risida;

- xududar byudjetlariga biriktirilgan daromadlar ruyxati va belgilangan (protsentlarda) xissasi to'g'risida;

- O'zbekiston Respublikasi byudjetidan beriladigan xarajatlar ruyxati to'g'risida ishlab chiqilgan malumotlar beriladi.

Shunga uxshash ko'rsatkichlar bo'yicha ma'lumotlar xokimiyat yukori ijroiya organlari tomonidan bevosita quyi ijroiya organlariga moliya yili boshlanishiga byudjetni tasdiklashni ta'minlovchi xokimiyat yukori organlari belgilangan muddatda yetkaziladi. Barcha moliyaviy resurslarni to'la hisobga olish, shuningdek, o'rtacha moliyaviy taminlanganlikni

aniqlash maksadida xududiy jamlanma moliyaviy balans tuzilishi mumkin. Korxona, tashkilot, muassasalar kaysi mulk shakliga buyusinishidan katiy nazar, jumladan soliq va statistika organlari, ijroiya organlarining talablari bo'yicha bu balanslarni tuzish uchun zarur ma'lumotlarni berishlari shart.

Byudjet loyihasini tuzish davrida asosiy vaqt xokimiyat ijroiya organlari hamda soliq va moliya organlari o'rtasida daromad va xarajatlarni kelishish uchun o'tadi.

O'zbekiston Respublikasi hukumati tuzilgan va kelishilgan Respublika byudjetini ko'rib chiqish uchun Oliy Majlista sentabrgacha kiritadi. Byudjet loyihasi bilan birgalikda quyidagi jujjatlar ham kiritiladi:

- o'tgan hisobot davri uchun O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy - iqtisodiy rivojlanishining dastlabki yakunlari;

- kelgusi yil uchun O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy- iqtisodiy rivojlanish istiqbollari;

- kelgusi yil uchun byudjet va soliq siyosatining asosiy yo'nalishlari;

- kelgusi yil uchun respublika byudjetidan moliyalashtirilishi ko'zda tutilgan xududlarni rivojlantirish bo'yicha Respublika maksadli dasturlari;

- Respublika maksadli investitsion dasturi;

- joriy yil uchun Respublika byudjeti kutilayotgan ijrosi bahosi;

- shuningdek, o'tgan hisobot yil uchun birlashtirilgan byudjet bajarilishi bahosi;

- kelgusi yil uchun Respublika byudjetining daromadlar va xarajatlar bo'yicha chorak taksimotlari va boshqa xujjatlar.

O'zbekiston Respublikasi jukumati Oliy Majlisga "Respublika byudjeti to'g'risida"gi qonun bilan birgalikda davlat byudjetidan tashqari fondlar byudjeti loyihasini, shuningdek, nafakalar va ish haqining eng oz mikdorini oshirish to'g'risidagi takliflarini ham kiritadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ruyxati:

1. Radionova V. M. "Finansi", - M.: 1995 g 67 st.
2. Burxanov U.A. Byudjetlararo munosabatlarni takomillashtirich. Dissertatsiya i.f.n. Tochkent. 2002.
3. Byudjetnaya sistema Rossiyskoy Federatsii: Uchebnoe posobie pod redaksiyey M.V. Romanovskiy i O.V. Vrublevskoy. 4-e izd.: -Piter: SPb. 2008. -S. 44.
4. Vahobov A.V., Burxanov U.A., Jumaev N.X. Chet mamlakatlar moliyasi. -T.: Yangi asr avlodi, 2003. - 268 b.
5. Vahobov A.V., Malikov T.S. MoliY. Darslik. -T.: Charq. 2010. -B. 11.
6. Gadoev E.F., Qurbonov X.A., Bauetdinov M.J. Moliya (O'quv qo'llanma) -T.: TDIU. 2006. -B. 78-79.